



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



INTI
International
University & Colleges

**HERIOT
WATT**
UNIVERSITY
UK | DUBAI | MALAYSIA

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O‘ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIYQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEXNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDAGI
O‘RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6
UO‘K 556.182:551.5(08)
BBK 26.222+26.236
«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo‘jaligidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San‘at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abduraufovna - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).
© Mualliflar
Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

GLOBAL ISISH JARAYONINING AHOLI SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Rustamova K.B.

“Buxoro davlat texnika universiteti” «Gidrologiya va ekologiya» kafedrası o‘qituvchisi.

E-mail: Kumush.Rustamova@gmail.com

Durduqulov F. O‘

“Buxoro davlat texnika universiteti” talabasi

E-mail: fozilbekdurdiqulov1@gmail.com

Annatsiya. Global isish jarayoni, ya'ni yer yuzasidagi o'rtacha haroratning uzoq muddatli o'sishi, aholi salomatligiga keng ko'lamli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon asosan inson faoliyati, xususan, issiqxona gazlarining (karbonat ангидрид, метан va boshqalar) atmosferaga chiqishi natijasida tezlashmoqda. Uning sog'liqqa ta'siri to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yo'llar orqali namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar. Global isish, sanoat gazlari, chang, astma, bronxit, konsentratsiya, to'fon, qurg'oqchilik, allergik kasalliklar, yuqumli kasalliklar, stress,

Abstract. The process of global warming, that is, the long-term increase in the average temperature of the Earth's surface, has a wide-ranging and multifaceted impact on the health of the population. This process is being accelerated mainly by human activity, in particular by the release of greenhouse gases (carbon dioxide, methane, etc.) into the atmosphere. Its impact on health is manifested through direct and indirect pathways.

Keywords: Global warming, industrial gases, dust, asthma, bronchitis, concentration, hurricane, drought, allergic diseases, infectious diseases, stress.

Kirish. Insoniyat taraqqiyot bosqichida sanoatlashish davri boshlangandan buyon iqlim isishi muttasil oshib bormoqda. Bu esa global muammoning xavflilik darajasini oshirmoqda. Olimlar global isishning asosiy omili issiqxona effekti ekanligini ta'kidlashdi. Yer atmosferasiga turli xil zararli sanoat gazlari chiqishi va u yerda to'planib qolishi sababli ushbu hodisa kuzatiladi. Yoqilg'ilarning yonishi natijasida ajralib chiqadigan gazlar atmosferada quyosh energiyasini ushlab turadi. Quyoshdan kelgan issiqlikni yer yuzida dimlanib qolishi issiqxona effektini keltirib chiqaradi. Issiqxona gazlari hajmining ortishi sayyoramiz iqlimining isib borishiga sabab bo'lmoqda. Global isish jarayoni aholi salomatligiga turli yo'llar bilan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Toshkentda 2021 yil iyun oyida uch asrdagi eng yuqori rekord – 49,5C darajadagi issiq harorat kuzatilgan. Xususan, 5-7 va 8 iyul kunlaridagi issiq harorat 150 yillik rekordni yangiladi. “O'zgidromet” xabariga ko'ra, bu yil ham 17–22 iyul kunlari harorat 47 C darajagacha isib ketishi kutilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi O'zbekistonda suv tanqisligini yanada kuchaytiradi, qurg'oqchilikning davomiyligi va chastotasining oshishiga, shuningdek, iqtisodiyotning suv resurslariga bo'lgan talabini qondirishda jiddiy muammolarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Issiqlik to'lqinlari va issiqlik stressi. Haroratning oshishi ayniqsa keksa yoshdagilar, bolalar va surunkali kasalliklarga chalinganlar uchun xavfli. Yurak-qon tomir va nafas yo'llari kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Quyosh urishi, suvsizlanish va issiqlik to'lqinlari o'lim darajasining oshishiga olib keladi. Yuqumli kasalliklarning tarqalishi. Haroratning oshishi va iqlim o'zgarishi chivin, kana va boshqa hasharotlar orqali yuqadigan kasalliklarning (bezgak, denge isitmasi, Laym kasalligi) tarqalishiga sabab bo'ladi. Ichimlik suvi va oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklarning (ich terlama va dizenteriya) ko'payishiga olib keladi. Havoning ifloslanishi. Havoning ifloslanishi (ozon va chang zarralari) nafas yo'llari kasalliklarini, shu jumladan astma va surunkali bronxitni kuchaytiradi. CO₂ va boshqa issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi allergik kasalliklar va o'pka kasalliklarining avj olishiga sabab bo'lishi mumkin.

To'fon va suv toshqinlari oqibatlarini. Iqlim o'zgarishi tufayli dengiz sathi ko'tarilishi va kuchli yomg'irlar suv toshqinlarini keltirib chiqaradi, bu esa ichimlik suvi tizimlarini ifloslantiradi va yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'ladi. To'fonlar va tabiiy ofatlar ko'plab insonlarning hayotiga tahdid soladi, ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir qiladi. Oziq - ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat taqchilligi. Iqlim o'zgarishi qurg'oqchilik, suv resurslarining kamayishi va

ekinlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshadi, natijada yetarlicha ovqatlanmaslik va to'yinsizlik muammosi yuzaga keladi.

Ruhiiy salomatlik muammolari. Iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan tabiiy ofatlar odamlarning stress, depressiya va post-travmatik sindrom kabi ruhiy kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Global isish jarayonining aholi salomatligiga ta'siri juda keng ko'lamli bo'lib, u bevosita va bilvosita oqibatlariga olib keladi. Quyida bu ta'sirlarning yana qo'shimcha jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ichimlik suvi tanqisligi va sifatsizlanishi. Iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilik va muzliklarning erishi ichimlik suvi manbalarini kamaytiradi. Suv tanqisligi tufayli aholi toza ichimlik suvidan mahrum bo'lib, ichak infeksiyalari, diareya va boshqa kasalliklar ko'payadi.

Allergiya va immun tizimining zaiflashishi. Harorat oshishi natijasida o'simlik changlari (polen) miqdori ko'payib, allergik reaksiyalar va astma xurujlari ortib boradi. Havo ifloslanishi immun tizimini zaiflashtirib, organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini kamaytiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Global isishning aholi salomatligiga ta'siri bo'yicha aniq ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlar va rasmiy tashkilotlar (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti – JSST, BMT, AQSh Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti) ma'lumotlari quyidagilardan iborat:

1. Issiqlik to'lqinlari va o'lim holatlari. 2003-yilda Yevropada kuzatilgan issiqlik to'lqini tufayli 70 000 kishi vafot etgan. Ta'siri: Yurak-qon tomir kasalliklari va issiqlik urishidan o'lim xavfi oshadi. Prognoz: 2100-yilga borib, issiqlik to'lqinlari natijasida har yili 250 000 kishi halok bo'lishi mumkin.

2. Havo ifloslanishi va nafas yo'llari kasalliklari.

Har yili 7 million kishi havo ifloslanishi sababli vafot etadi. Ta'siri: Nafas yo'llari kasalliklari (astma, bronxit) va yurak-qon tomir kasalliklari ko'payadi.

3. Oziq-ovqat xavfsizligi. Global isish natijasida qurg'oqchilik va hosildorlikning kamayishi sababli 2050-yilga borib 500 million odam oziq-ovqat tanqisligiga duch kelishi mumkin. Ta'siri: Ratsiondagi muhim ozuqa moddalarining kamayishi immun tizimini zaiflashtiradi, bolalar va homilador ayollarda kamqonlik (anemiya) va o'sishning sustlashishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Olimlar global isishning salbiy oqibatlarini yengillashtirish uchun yerdagi harorat ko'tarilishini selsiy bo'yicha 1,5-2C darajagacha cheklash zarurligini qayta-qayta ta'kidlamogda. Shu maqsadda 2015- yilda 190 dan ortiq davlat Parij bitimini imzolagan bo'lib, unda ushbu maqsadga erishish uchun aniq harakatlar rejasi tuzib chiqilgan. O'zbekistonning BMTning iqlim bo'yicha Parij kelishuviga qo'shilishi muhim voqea bo'lib, uning doirasida 2030-yilga kelib atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari chiqarishni 2010-yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish bo'yicha majburiyatlar qabul qilindi. Mazkur maqsadga erishish uchun hozirgi kunda kam uglerodli rivojlanish milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Umumiy qilib aytganda, global isish inson salomatligiga katta xavf tug'diradi. Issiqlik to'lqinlari, havo ifloslanishi, yuqumli kasalliklarning tarqalishi va oziq-ovqat taqchilligi global miqyosda sog'liq muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bu ta'sirlarni yumshatish uchun

- ◆ Issiqxona gazlarini kamaytirish
- ◆ Iqlim o'zgarishiga moslashish siyosatini ishlab chiqish
- ◆ Sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirish
- ◆ Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish zarur.

Agar bu jarayonlar nazoratga olinmasa, kelajakda sog'liqqa oid xavflar yanada kuchayishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston" -2030 strategiyasi
2. Alibekov L.A. Inson va tabiat. –T: Fan va texnologiya nashriyoti. 2016 y
3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T: "Yangi asr avlodi" 2005 y
4. Usmanov E. Ekologik munosabatlarning globallasuvi. Jamiyat va boshqaruv, Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – tarixiy jurnal. T: 2007 y
5. <https://uz.wikipedia>